



Asosiy tarkib

Dastlabki ma'lumotlar

Tarkibiy qism, ulushlarda




Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Namangan viloyati bo'yicha 2022 - yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 13 051,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 14,3 % ga ko'paygan. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 103,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 145,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 11 948,2 mlrd. so'mni (11,7 % ga ko'paygan). Shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 891,2 mlrd. so'mni (16,9 % ga ko'paydi) tashkil etdi.



o'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda






UMUMIY MA'LUMOT

Namangan viloyati bo'yicha 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **13 051,8** mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **13,8** % ni tashkil etdi.

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda ko'payish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **91,5** % va yirik korxonalar hissasiga **8,5** % to'g'ri keldi.




ENG YUQORI ULUSH

Namangan viloyati bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri **40,7** % ulush **5 311,8** mlrd. so'm ni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Mingbuloq tumanida **2,7** % ulush bilan **346,6** mlrd.so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
		2021-yil Yanvar-sentabr
		2022-yil Yanvar-sentabr

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar – sentabr oylari yakuniga ko'ra, 11 948,2 mlrd.so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 11,7 % ga ko'paygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 91,5 % ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda Uychi (99,2 %) Kosonsoy (99,0 %), Yangiqo'rg'on (97,8 %), Chortoq (97,4 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.





2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko‘payish sur‘atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko‘rsatkichlar Chust (122,4 %), Pop (114,3 %) tumanlarida qayd etildi.



Chakana savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda



	Jami, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	13051,8	113,8	1103,6	145,5	11948,2	111,7
Namangan sh.	5311,8	113,1	475,1	146,9	4836,7	110,9
tumanlar:						
Mingbuloq	346,6	111,2	14,2	319,6	332,4	108,4
Kosonsoy	645,9	113,7	6,4	107,3	639,5	114,0
Namangan	555,7	111,8	39,8	271,2	515,9	107,2
Norin	695,3	111,5	40,1	96,9	655,2	112,8
Pop	944,7	114,3	30,7	56,8	914,0	118,6
To‘raqo‘rg‘on	846,5	111,8	78,0	140,0	768,5	109,8
Uychi	722,4	112,1	5,8	107,2	716,6	112,3
Uchqo‘rg‘on	524,8	114,1	27,2	99,0	497,5	115,3
Chortoq	552,1	113,5	14,2	107,0	537,9	113,9
Chust	1247,2	122,4	357,6	180,8	889,5	108,5
Yangiqo‘rg‘on	658,9	112,8	14,3	95,7	644,5	113,5

Yirik korxonalar



Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 45,5 % ga ko'paygan va **1 103,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **8,5 %** ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra **11 948,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **11,7 %** ga ko'paygan. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,5 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Uychi, (99,2 %), Kosonsoy (99,0 %), va Yangiqo'rg'on (97,8 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 8,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chust (28,7 %), To'raqo'rg'on (9,2 %), Namangan sh. (8,9 %) tumanlarida kuzatildi.



**NAMANGAN VILOYATI Bo‘YICHA AHOLI JON
BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2022-yil yanvar-sentabr oylari holatiga ko‘ra o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 416,6** ming so‘m (2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 11,3 % ga ko‘paygan). Chust (120,1 %), Pop (112,2 %), Uchqo‘rg‘on (111,9 %) va Chortoq (111,4 %) tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko‘rsatkichlarida ko‘payish sur‘atlari kuzatildi.

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Namangan shahri (7 959,0 ming so‘m), Chust (4 512,2 ming so‘m) va Pop (4 134,3 ming so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.




	Hajm, ming so‘m	2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	4 416,6	111,3
Namangan sh.	7 959,0	110,3
tumanlar:		
Mingbuloq	2 621,8	108,9
Kosonsoy	2 941,4	111,2
Namangan	2 997,2	109,3
Norin	4 080,5	109,5
Pop	4 134,3	112,2
To‘raqo‘rg‘on	3 591,4	109,1
Uychi	3 225,1	109,5
Uchqo‘rg‘on	2 925,1	111,9
Chortoq	2 659,4	111,4
Chust	4 512,2	120,1
Yangiqo‘rg‘on	2 882,3	110,3



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,6 %** ni tashkil etib, **210,5 mlrd. so‘mga** yetdi va 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **17,1 %** ga ko‘paygan. Bunda jami savdo aylanmasining **84,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	210,5	117,1	32,3	464,8	178,1	210,5
Namangan sh.	120,3	117,8	23,1	334,4	97,2	120,3
tumanlar:						
Mingbuloq	5,1	105,6	0,0	0,0	5,1	5,1
Kosonsoy	5,0	105,8	0,0	0,0	5,0	5,0
Namangan	14,5	131,0	3,0	0,0	11,5	14,5
Norin	4,2	107,5	0,0	0,0	4,2	4,2
Pop	10,7	103,4	0,0	0,0	10,7	10,7
To‘raqo‘rg‘on	6,2	104,4	0,0	0,0	6,2	6,2
Uychi	3,6	107,1	0,0	0,0	3,6	3,6
Uchqo‘rg‘on	5,8	104,7	0,0	0,0	5,8	5,8
Chortoq	5,7	103,2	0,0	0,0	5,7	5,7
Chust	25,1	136,9	6,2	0,0	18,9	25,1
Yangiqo‘rg‘on	4,2	106,5	0,0	0,0	4,2	4,2

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik
korxonalar




Mikrofirma va
kichik korxonalar

Namangan viloyati bo'yicha 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **6 000,3** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **25,0 %** ga ko'paygan Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **1 199,5** mlrd. so'mni (**56,5 %** ga ko'paygan), mikrofirmalar va kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **4 800,8** mlrd. so'mni (**119,1 %** ga ko'paygan).


o'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Kosonsoy (105,9 m.), Pop(80,1 m.), Namangan (43,5 m.) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari, Namangan (216,5 %), Kosonsoy (208,4 %) Norin (189,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	6000,3	125,0	1199,5	156,5	4800,8	119,1
Namangan sh.	3636,9	118,5	628,1	3,8m	3008,9	103,6
tumanlar:						
Mingbuloq	90,8	177,6	0,1	38,3	90,7	178,2
Kosonsoy	259,2	208,4	19,1	105,9m	240,2	193,3
Namangan	242,8	216,5	40,1	43,5m	202,7	182,3
Norin	295,5	189,4	70,4	230,1	225,1	179,5
Pop	200,7	160,3	59,2	80,1m	141,5	113,7
To'raqo'rg'on	267,2	80,6	181,5	73,6	85,7	100,9
Uychi	326,0	103,3	50,9	35,9	275,0	158,4
Uchqo'rg'on	114,1	134,3	53,2	116,4	60,9	155,1
Chortoq	220,8	134,8	0,0	0,0	220,8	174,8
Chust	139,9	102,9	97,0	99,8	42,9	110,7
Yangiqo'rg'on	206,5	161,0	0,0	0,0	206,5	161,0

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, **4800,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **20,0** % ga ko'paygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **80,0** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiqo'rg'on va Chortoq, (100,0 %), Mingbuloq, (99,9 %), tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulushi esa Chust (30,7 %) tumaniga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Tel : (69)-211-72-00